

AKADEMIK BO‘RIBOY AHMEDOV TADQIQOTLARIDA O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISH TARIXI MASALASI

Valisher E. Abirov

Ph.D., Katta o‘qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

E-mail: abirovvalisher@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasining B.Ahmedov tadqiqotlarida yorilishi o‘rin olgan. Muallifning tarixiy, manbashunoslik sohasidagi izlanishlari, gazeta va jurnallardagi nashr etilgan maqolalari tahlil qilinadi. Muammoga oid ilmiy qarashi, fikr va yondashuvlari tarixshunoslik nuqtai nazaridan bayon qilinib, mustaqillik yillarida akademik olim tomonidan yozilgan tadqiqotlarga baho beriladi. Olimning tadqiqotlari o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega ligi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. “O‘zbek”, O‘zbek ulusi, etnogenez, etnik tarix, etnonim, tarix, manbashunoslik, ko‘chmanchi o‘zbeklar.

THE PROBLEM OF THE HISTORY OF THE FORMATION OF THE UZBEK PEOPLE IN THE STUDIES OF ACADEMICIAN BORIBOY AHMEDOV

Valisher E. Abirov

Ph.D., Senior Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies,

E-mail: abirovvalisher@gmail.com

Annotation. The article deals with the analysis of the issue of ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people in the research of B. Ahmedov. The author's research in the field of history, source studies, and articles published in newspapers and magazines are analyzed. His scientific views, ideas, and approaches to the problem are described from the point of view of historiography, and the studies written by the academician during the years of independence are

evaluated. The importance of the scientist's research in studying the issue of ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people is stated.

Keywords: “Uzbek”, Uzbek nation, ethnogenesis, ethnic history, ethnonym, history, source studies, nomadic Uzbeks.

ПРОБЛЕМА ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА В ИССЛЕДОВАНИЯХ АКАДЕМИКА БОРИБОЯ АХМЕДОВА

Валишер Э. Абиоров

*Кандидат философских наук, старший преподаватель
Ташкентский государственный университет востоковедения,
E-mail: abirovvalisher@gmail.com*

Аннотация. *Статья посвящена анализу проблемы этногенеза и этнической истории узбекского народа в исследованиях Б. Ахмедова. Анализируются исследования автора в области истории, источниковедения, статьи, опубликованные в газетах и журналах. Описываются его научные взгляды, идеи, подходы к проблеме с точки зрения историографии, дается оценка исследованиям, написанным академиком в годы независимости. Обозначено значение исследований ученого в изучении проблемы этногенеза и этнической истории узбекского народа.*

Ключевые слова: «Узбек», узбекская нация, этногенез, этническая история, этноним, история, источниковедение, кочевые узбеки.

KIRISH.

O‘zbek xalqining shakllanish tarixi masalasi Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kabi murakkab tarixiy tuzilishga ega. Mazkur masalaga oid XIX asr so‘nggi choragidan boshlab XX asr 90 – yillarigacha bo‘lgan davrda yozilgan asarlar turli xil siyosiy-mafkuraviy qarashlar asosida yozilganligi bilan ajralib turadi. Muammoni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, fan nuqtai nazaridan emas, siyosiy tuzum tomonidan belgilab berildi. Sobiq SSSR tuzumi xalqlarining milliy xususiyatlarini “bir xillashtirish” yondoshuvi natijasida “sovet xalqi”ni vujudga keltirishga kirishdi. Yevropa va boshqa mintaqalarda paydo

bo‘lgan muammoni o‘rganishning ilmiy nazariyalari “g‘oyaviy urush” sifatida baholanib, fanga tadbiiq etilmadi. Boshqa ijtimoiy fan vakillari singari tarixchi va etnograf olimlar ham kommunistik partiyaning belgilab bergan ko‘rsatmalaridan tashqariga chiqmadi. XX asr 80 – yillarida B. Ahmedov bu masalani bir tomonlama emas, balki turli yondashuvlar asosida xolislik bilan o‘rganish lozimligini ta’kidlagan yagona olim edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq milliy tariximizni tiklash, uni xalq e’tiboriga taqdim etish uchun katta maqsad va vazifalar belgilandi. Soha olimlari tarixiy asarlar yozishda xalq tarixini xolis o‘rganishga, mustamlaka mafkurasi qoliplaridan voz kechib, mustaqil davlat tarixini qayta yozishga kirishdi. Tarix fani oldida hali o‘z yechimiga to‘liq ega bo‘lmagan o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasining dolzarblik ahamiyati kuchaydi. Bu borada, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Bo‘riboy Ahmedovning izlanishlari muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM.

XX asr 80 – yillar oxirida “Sharq yulduzi” jurnalida B. Ahmedovning o‘zbek xalqining kelib chiqshi masalasini o‘rganishga oid fikr-mulohazalari bosilib chiqdi. Olim yozuvchi Sh. Otaboyev bilan suhbatida shu vaqtgacha o‘zbek xalqining kelib chiqishi va etnik tarixiga bag‘ishlab yozilgan asarlarning ahamiyati kattaligini, lekin ularning birortasi ham bu muhim ilmiy masalani to‘la hal qilib berolmasligini ko‘rsatib o‘tgan edi¹. B. Ahmedov o‘zining “Tarixni soxtalashtirib bo‘lmaydi”² nomli maqolasida xalqning etnik tarix muammosini yechimini topmagan masala sifatida keltiradi.

O‘z vaqtida B. Ahmedov Markaziy Osiyo xalqlari tarixining ayrim davrlarini yoritishda beryoqlamalikka yo‘l qo‘ygan M. Vahobovning “Правде истории вопреки”³ (Tarix haqiqatiga zid), “О правде – только правду”⁴ (Haqiqat

¹ Ахмедов Б., Отабоев Ш. Тарих авлодлар тақдирида // “Шарқ юлдузи” ойлик адабий-бадий, ижтимоий-сиёсий журналы. – Тошкент, 1987. – № 9. – Б. 174.

² Ахмедов Б. Тарихни сохталаштириб бўлмайди // “Шарқ юлдузи” ойлик адабий-бадий, ижтимоий-сиёсий журналы. – Тошкент, 1989. – № 6. – Б. 164-166.

³ Вахабов М. Г. Правде истории вопреки // Правда Востока. – 4 декабря 1986 г.

www.sharqjurnali.uz

[DOI: 10.5281/zenodo.14707350](https://doi.org/10.5281/zenodo.14707350)

xususida – faqat haqiqat), G. Hidoyatovning “Великий воспитатель”⁵ (Ulug’ muallim) deb nomlangan maqolalarini asosli tanqid ostiga oladi. “O’qituvchilar gazetası”ning 1988-yil 14-sentabr sonidan e’lon qilingan 7-sinf tarix darsligi dasturidagi o’zbek xalqining shakllanish masalalari batamom buzib bayon qilinganligi haqida to’xtalib o’tadi. Masalaga yuzaki qaragan tashkilotlar va yuqoridan bo’lgan munosabatni ochiq yozib, bu ishga O’zbekiston xalqlari tarixini puxta bilgan, tajribali o’qituvchilarni jalb etilishi kerakligini qayd qiladi. Ushbu davrda siyosiy-mafkuraviy bosimlarga qaramay, masalani shunday ko’rinishda olib chiqishi olimdan katta jur’at talab etganligini e’tirof etish joiz.

B. Ahmedovning mustaqillik dastlabki yillarida ham o’zbek xalqi kelib chiqishi xususida bir qancha ilmiy ishlari⁶ nashrdan chiqdi. Olimning mazkur masala bo’yicha uzoq yillik izlanishlari natijasida 1962-yilda “O’zbeklarning kelib chiqish tarixidan (XV asrda ko’chmanchi o’zbeklar davlati)”⁷ va 1965-yilda “Государство кочевых узбеков”⁸ asarlari nashr etilgan. “Государство кочевых узбеков” kitobi A. Ishanov⁹, V. Yudin¹⁰ kabi olimlarning fikr-mulohazalari asosida qayta to’ldirilib, 1992-yilda “O’zbek ulusi” nomi ostida e’lon qilindi. Ushbu tadqiqot mustaqillik yillarida dastlabki yirik tadqiqotlardan biri sifatida e’tirof etilib, olimning o’zbek xalqining etnik tarixi, ko’chmanchi o’zbeklar davlati, “o’zbek” atamasining etnik nom sifatida shakllanish masalalariga oid tadqiqot ishi sifatida qaraladi. O’rta Osiyo va Qozog’iston xalqlarining XV asrdagi

⁴ Вахабов М. Г. О правде – только правду // Правда. Востока. – 21 июня 1988 г.

⁵ Хидояттов Г. Великий воспитатель // Правда. Востока. – 11 ноября 1988 г.

⁶ Ахмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, “Нур”, 1992. – 152 б.; О’sha muallif. Биз киммиз ўзи? // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1992. №1. – Б. 176–181; О’sha muallif. Ўзбек улуси // “Ўзбегим” тўплами. – Тошкент, 1992. ((Берилган вақти 30.05.2017) <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/burivoy-ahmedov-uzbek-ulusi/>), Асқаров А., Ахмедов Б. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. (дастлабки мулоҳазалар) // “Ўзбекистон овози”. 1994 йил 20 январь. – Б. 5; О’sha muallif. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 430 б.; Ахмедов Б. Ёлғиз отнинг чанги чикмас // “Жаҳон адабиёти”. – 1999. №1. – Б. 6–8; О’sha muallif. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи. 2001. – 352 б.

⁷ Ахмедов Б. Ўзбекларнинг келиб чиқиш тарихидан. (XV асрда кўчманчи ўзбеклар давлати). – Тошкент: Ўзфанакаднатшр, 1962. – 79 б.

⁸ Ахмедов Б. А. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965. – 196 с.

⁹ Ишанов А. И. Книга по истории государства кочевых узбеков // Общественные науки в Узбекистане. 1966. № 11. – С. 41–41.

¹⁰ Юдин В. П. Рецензия на кн.: Б. А. Ахмедов. Государство кочевых узбеков. М., 1965, «Известия АН КазССР, серия общественная». – Алма-Ата, 1966, № 2. – 86 с.

tarixiga doir arxeologik va tarixiy asarlardan unumli foydalanib yozilgan “O‘zbek ulusi”¹¹ kitobida asosan Abulhayrxon davlatining siyosiy tarixi yoritiladi. E’tiborli jihati, “O‘zbek ulusi” asarini yozishda olim Ma’sud ibn Usmon Ko‘histoniyning “Tarixi Abulhayrxoniy”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Abulhayr Fazlulloh ibn Ro‘zbehonning “Mehmonnomai Buxoro”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” kabi manbalar foydalanganidir. Bu esa asarda keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniylik qiymatini oshirgan. Ushbu asarning eng qimmatli tomoni shundaki, u o‘zbek xalqining kelib chiqishi ko‘chmanchi o‘zbeklarga aloqadorligi to‘g‘risidagi qarashning asossiz ekanligini isbotlab berdi. Masala yuzasidan B. Ahmedovning bildirgan fikriga ko‘ra, o‘zbeklarning ajdodlari juda qadim zamonlarda hozirgi O‘zbekiston hududlarida yashagan¹². Olim o‘zbek xalqining shakllanishi masalasida arxeolog A. Asqarov bilan hamfikir bo‘lgan.

Olimning o‘zbek xalqi shakllanishiga doir qarashlari A. Yakubovskiyning fikrlarini¹³ tasdiqlashga qaratilgan. Chunonchi, XVI asrning boshlarida o‘z hukmronliklarini o‘rnatgan ko‘chmanchi o‘zbeklar tez orada Movarounnahrning turkiy ommasi orasiga singib ketganlar va faqat unga o‘z nomlarini berganlar xolos, deb ta’kidlaydi¹⁴. Olim ham sovet davri tadqiqotchilari singari “o‘zbeklarning kelib chiqishi Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon nomi bilan bog‘liq”, degan fikrning asossiz ekanini isbotlashga harakat qiladi¹⁵.

B. Ahmedovning A. Asqarov bilan 1994-yil chop etilgan¹⁶ maqolasida o‘zbek xalqi ildizi tag-tomiri, birinchi va asosiy komponenti sak-massagetlar, so‘g‘diylar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar va parkonaliklar tashkil etgani

¹¹ Ахмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси – “Нур”, 1992. – 152 б.

¹² Ахмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 1992. – Б. 121.

¹³ Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Тошкент: ЎзФАН, 1941. – Б 13

¹⁴ Юкоридаги асар... – Б. 121.

¹⁵ Хошимова Д. Ф. Ватан тарихшунослигида ўзбек халқининг этник тарихи ва этногенезининг ўрганилиши (XIX аср ўрталари XX аср): Тарих фан номзод... дис. – Тошкент, 1997. – Б. 103.

¹⁶ Асқаров А., Ахмедов Б. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи // Ўзбекистон овози. 1994. 20-январь.

to‘g‘risidan ma’lumotlar keltiriladi. Etnograflar o‘z mulohazasini isbotlash maqsadida S. Tolstovning fikriga urg‘u beradi.

Maqolada “Markaziy Osiyo xalqlarining o‘q tomiri bitta bo‘lib, ular sak-massaget, so‘g‘diy, xorazmiy, bixtar, chochlik va parkonalik edi”, degan xulosaga keladi. Ularning bu xulosalari ilmiy doirada turli munozaralarga sabab bo‘lgan. Jumladan, K. Shoniyo-zov bu maqolaga doir mulohazasida “turk” va “turkiy” xalq atamalarini izohlab bergan¹⁷. Albatta, arxeolog va manbashunos olimning etnogenez haqidagi fikrlari o‘z davri uchun e’tiborga molik. Etnologiya fanida “o‘q tomir”, “qadimiy ajdodlar”, “tag-ildiz tomir” kabi atamalar primordializm yondashuvning mahsuli hisoblanib, bu masalaning haligacha yakuniy yechimi aniqlanmadi. Chunki bu borada arxeologik tadqiqotlarning o‘zi yetarli emas.

B. Ahmedov tomonidan etnogenez masalasida yetarlicha izlanishlar olib borilmayotgani tanqid ostiga olingan holatni ham uchratish mumkin. Jumladan, 1999-yil “Jahon adabiyoti” jurnalida chop etilgan “Yolg‘iz otning changi chiqmas”¹⁸ maqolasida o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasida tarixchi olimlar tomonidan jiddiy ilmiy tadqiqot hanuzgacha yaratilmagani, buning asosiy sababi – yakka xo‘jalik bo‘lib ishlash, o‘z bilganini yozish, “masalani o‘zim yechib shon-shuhrat qozonaman”, – degan qat’iyatning ustunligida, deb izohlaydi. Natijada, olimning, umuman jamiyatning xalq tarixi borasida mustaqillikdan so‘ng yangi yondashuvlarga, chuqur tadqiqotlarga ehtiyoji mavjudligi, ammo ilmiy doirada bu borada birlik bo‘lmagani sababidan ahvol qoniqarsiz darajada qolayotgani anglashiladi.

Aakdemik olimning “o‘zbek” etnonimi xususidagi yuritgan ilmiy fikrlari ham mavjud bo‘lib, o‘z qarashlarini tarixiy manba va rus tarixchilari asarlari asosida isbotlashga urinadi. B. Ahmedovning 1992-yil Sharq yulduzi jurnalida Shodmon Otabek bilan suhbatida “XVI asrning boshida ko‘chmanchi o‘zbek

¹⁷ Шониёзов К. Ворислик // “Ўзбекистон овози”. 1994 йил 7 апрель. – Б. 3.

¹⁸ Аҳмедов Б. Ёлғиз отнинг чанги чиқмас // “Жаҳон адабиёти”. – 1999. № 1. – Б. 6–8.

www.sharqjurnali.uz

DOI: [10.5281/zenodo.14707350](https://doi.org/10.5281/zenodo.14707350)

qabilalarning bir qismi Muhammad Shayboniyxon yetakchiligida O‘rta Osiyoga bostirib kirib, hozirgi O‘zbekiston hududiga o‘rnashib oldilar. Shu vaqtdan boshlab “o‘zbek” atamasi xalq nomini bildiruvchi etnik atama bo‘lib qoldi. Bundan o‘zbek xalqining kelib chiqishini XVI asrdan boshlamoq kerak, degan xulosa chiqmaydi”¹⁹ – deb ta’kidlaydi. B. Ahmedovning bu fikrlari ham A.Yakubovskiyning yondashuvini to‘liq qaytargan va tasdiqlagan. Yuqorida keltirilgan ikki misoldan ko‘rinadiki, B. Ahmedovning o‘zbek xalqi shakllanishi borasida sovet olimlari qarashlarini o‘rinli hisoblagan.

B. Ahmedov rahbarligida o‘zbek tilida nashr etilgan Mirzo Ulug‘bekning (1409 – 1449) “To‘rt ulus tarixi” nomli asarida “o‘zbek” atamasi haqida ham ma’lumotlar keltiriladi. Asarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra “o‘zbek” atamasi xalq nomi sifatida Movarounnahrda XIV asrning birinchi yarmidayoq (Botuxon bilan Barakaxon tarixida keltirilgan ba’zi ma’lumotlarni e’tiborga olganda) kirib kelganligi ma’lum bo‘ladi. B. Ahmedov bu borada rus olimlari A. Semyonov va A. Yakubovskiyning mulohazalari bilan hamfikrdir.

B. Ahmedov o‘zbeklarning kelib chiqishi tarixiga bag‘ishlangan risolasida bu boradagi N. Aristov, A. Yakubovskiy, P. Ivanov, G. Xavors, A. Vamberi kabi olimlarning fikrlarini umumlashtirib shunday yozadi: “O‘zbek so‘zi Juvayniy va Rashididdin (XIII asr) zamonidan ma’lum. Ilxon Abaqaxon (1265-1282) zamonida yashagan Puri Baho (Tojiddin ibn Bahoiddin)ning mo‘g‘ul qasidasida va Rashididdinning “Jome’ ut-tavorix” asarida ham o‘zbek so‘zi uchraydi... Rashididdinning kitobida keltirilgan o‘zbek so‘zi ham biror qabila yoki urug‘ning nomi bo‘lmay, balki Jo‘gixonning yettinchi o‘g‘li Bo‘kalning nabirasi, Mingqudarning o‘g‘li shahzoda O‘zbekning nomidir... Ko‘chmanchi o‘zbeklar To‘xtamishxon qo‘shinining asosiy qismini tashkil qilgan edi... Xondamir bu to‘g‘rida ancha qimmatli ma’lumotlar qoldirgan... U 1388-1391-yil voqealari to‘g‘risida, ya’ni Temur bilan To‘xtamishxon o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urushlar

¹⁹ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 62.
www.sharqjurnali.uz

to‘g‘risida hikoya qilar ekan, To‘xtamishxon qo‘l ostida bo‘lgan qo‘shinni hamisha “o‘zbek sipohi” (“sipohi o‘zbek”), deb ataydi... Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, XIV asrning ikkinchi yarmida Dashti Qipchoqning katta qismi, xususan, Oq O‘rda va Shaybon ulusida ko‘chib yurgan turk-mo‘g‘ul qabilalari o‘zbeklar, bu bepoyon hudud o‘zbeklar viloyati, deb atala boshlandi. Bundan o‘zbeklar Dashti Qipchoqda faqat XIV asrning ikkinchi yarmidan paydo bo‘lgan, degan xulosa kelib chiqmaydi”²⁰.

B. Ahmedov yana qayd etadiki, “to XIV asrning 60 – yillarigacha “o‘zbek” so‘zi manbalarda uchramaydi. “O‘zbek” atamasini ko‘pchilik olimlar o‘zbeklarning kelib chiqishini Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon nomi bilan bog‘laydilar, vaholanki, bu atamaning O‘zbekxondan ham oldin mavjud bo‘lganligini tasdiqlovchi fikrlar ham bor, deb yozadi. B. Ahmedov o‘z qarashlarida A. Semyonovning bu haqidagi fikrini e’tirof etib, A. Semyonov haq bo‘lsa kerak,²¹ deb hisoblaydi.

XULOSA.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, B. Ahmedov tadqiqotlari muammoning aniq yechimini belgilab bermagan bo‘lmasa-da, uni tadqiq etishga oid muhim ko‘rsatmalar berilganligini kuzatish mumkin. Olib borilgan manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlarda ushbu mavzu yaxlit tadqiq etilmadi. Olimning manbashunoslik tadqiqotlarida natijasida chop etilgan asari “ko‘chmanchi o‘zbeklar” masalasiga aniqlik kiritgan. Boshqa manbashunoslik izlanishlarda esa, bildirilgan fikrlar asosan tavsifiy bo‘lib, ma’lum hududlarda istiqomat qilgan urug‘ va qabilalarni sanab o‘tish bilan cheklangan. Tarixiy tadqiqotlarda ham muammoga oid umumiy ma’lumotlar bilan cheklanilib, yondashuvlar deyarli o‘zgarishsiz, “milliy avtohtonizm” konsepsiyasi asosida shakllantirildi. B. Ahmedovning tadqiqotlari arxeolog, tarixchi, manbashunos olimlar tomonidan

²⁰ Ахмедов Б. Ўзбекларнинг келиб чиқиш тарихидан. Тошкент., 1962. – Б. 3–6.

²¹ Ахмедов Б. А. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965. – С. 13.

yuqori baholansa-da, keyingi yillarda muammoni fanlararo yondashuv asosida tadqiq etgan fundamental asarlar chop etilmadi. Shuning uchun, o‘zbek xalqining shakllanish tarixi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, o‘zbek atamasi va umuman xalqqa xos bo‘lgan barcha tarixiy, antropologik, tilshunoslik tadqiqotlarini amalga oshiradigan yagona ilmiy tadqiqot markazini yaratish bu masalada izlangan olimlar merosi uchun ham samarali bo‘ladi.

REFERENCES/ СПИСОК ИСТОЧНИКОВ/ FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аҳмедов Б. Ўзбекларнинг келиб чиқиш тарихидан. (XV асрда кўчманчи ўзбеклар давлати). – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1962. – 79 б.
2. Аҳмедов Б. А. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965. – 196 с.
3. Аҳмедов Б., Отабоев Ш. Тарих авлодлар тақдирида // “Шарқ юлдузи” ойлик адабий-бадий, ижтимоий-сиёсий журнали. – Тошкент, 1987. № 9. – Б. 171–176.
4. Аҳмедов Б. Тарихни сохталаштириб бўлмайди // “Шарқ юлдузи” ойлик адабий-бадий, ижтимоий-сиёсий журнали. – Тошкент, 1989. – № 6. – Б. 164–166.
5. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси – “Нур”, 1992. – 152 б.
6. Аҳмедов Б. Биз киммиз ўзи? // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1992. №1. – Б. 176–181.
7. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси // “Ўзбегим” тўплами. – Тошкент, 1992. ((Берилган вақти 30.05.2017) <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/burivoy-ahmedov-uzbek-ulusi/>).
8. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 430 б.
9. Асқаров А., Аҳмедов Б. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи // Ўзбекистон овози. 1994. 20-январь.
10. Аҳмедов Б. Ёлғиз отнинг чанги чиқмас // “Жаҳон адабиёти”. – 1999. №1. – Б. 6–8.
11. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи. 2001. – 352 б.